

YOSHLAR DUNYOQARASHIDA ABDULLA QODIRIY ASARLARI

*Mirqodirov Mirolim Mirakmalova**Dilnoza Ahliddinova Xushnozaxon**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek jadidchilik namoyondalaridan biri hamda o'zbek romanchiligiga asos solgan Abdulla Qodiriyning ijod yo'li haqida boradi. O'zbek adabiyoti tarixida shunday siymolar borki, ularning ijodi nafaqat o'z davrida, balki kelajak avlodlar hayotida ham o'z aksini topadi. Ana shunday buyuk siymolardan biri – Abdulla Qodiriydir. U o'zining chuqur mazmunli asarlari, erkin fikrlashga undovchi g'oyalari bilan o'zbek adabiyotini yangi bosqichga olib chiqqan adibdir. Abdulla Qodiriy ijodi o'z zamonasi uchun inqilobiy ahamiyat kasb etgan bo'lsa, bugungi yoshlar uchun ham u hayot maktabi, milliy o'zlikni anglash va kelajakka ishonch bilan qarashga ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Uning asarlarida insoniy qadriyatlar, erkinlikka intilish, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurashish singari dolzarb mavzular yoritilgan. Bugungi kunda yosh avlod texnologiya va tezkor axborot asrida yashamoqda. Shunday bo'lsa-da, uning merosi o'zining mangu ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Yoshlar Abdulla Qodiriy asarlaridan faqat adabiy zavq emas, balki hayotiy saboqlar ham olishmoqda.

Аннотация: В этой статье рассказывается о творческом пути Абдуллы Кадыри, одного из представителей узбекского джадидизма и основоположника узбекского романизма. В истории узбекской литературы есть такие фигуры, творчество которых находит отражение не только в свое время, но и в жизни будущих поколений. Одна из таких великих фигур – Абдулла Кадыри. Он-писатель, который своими глубоко содержательными произведениями, идеями, побуждающими к свободомыслию, вывел узбекскую литературу на новый уровень. Хотя творчество Кадыри имело революционное значение для своего времени, для сегодняшней молодежи оно также служит школой жизни, источником вдохновения для национального самосознания и уверенности в будущем. Его работы затрагивают такие актуальные темы, как человеческие ценности, стремление к свободе, борьба с несправедливостью в обществе. Сегодня молодое поколение живет в век технологий и быстрой информации. Тем не менее, наследие Кадыри не утратило своего вечного значения. Молодые люди получают от произведений Кадыри не только литературное удовольствие, но и жизненные уроки.

Abstract: This article discusses the creative path of Abdulla Qodiriy, one of the representatives of Uzbek Jadidism and the founder of Uzbek novels. There are such figures in the history of Uzbek literature whose work is reflected not only in their time,

but also in the lives of future generations. One of such great figures is Abdulla Qodiriy. He is a writer who brought Uzbek literature to a new level with his deeply meaningful works and ideas that encourage free thinking. While Qodiriy's work was revolutionary for his time, it also serves as a school of life, a source of inspiration for today's youth to understand national identity and look to the future with confidence. His works cover such topical topics as human values, the pursuit of freedom, and the fight against injustice in society. Today, the younger generation lives in the age of technology and rapid information. However, Qodiriy's legacy has not lost its eternal significance. Young people are not only enjoying his literary works, but also learning life lessons.

Kalit so'zlar: jadidchilik, romanchilik, inqilob, „O'tkan kunlar”, „Mehrobdan chayon”, Mushtum jurnali, ijodiy merosi.

Ключевые слова: джадидизм, романистика, революция, „дни минувшие”, „Скорпион из алтаря”, журнал "кулак", творческое наследие.

Keywords: Jadidism, novelism, revolution, "Bygone Days", "The Scorpion from the Altar", Mushtum magazine, creative heritage.

O'zbek jadidchiligining namoyondalaridan biri bo'lgan Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkentning Eshonguzar mahallasida bog'bon oilasida dunyoga kelganlar. „Boshida boy oilada tug'ildimmi yoki kambag'al oiladami, albatta bilmadim. Ammo yoshim yetti-sakkizga yetgach qornim oshga to'ymaganidan aniq bildimki, besh jonning tomog'i faqat sakson yoshlik bir chol odamning mehnatidan, 1300 sarjin bog'ning yozda yetishtirib beradigan hosilidan kelar ekan. Agar bahor yomon kelib, bog' mevalari ofatga uchrab qolsa, biz ham ochlikka duch kelib, qishi bilan javrashib chiqar ekanmiz...” deb yozadi Abdulla Qodiriy. Haqiqatdan ham uning yoshlik yillari ancha qiyin kechgan. Shunga qaramay u bilimga, adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini aslo so'ndirmadi. Keyinchlik 1908-yilda Toshkentda rus-tuzem maktabi ochilgach, unda o'qib, bilimlardan birmuncha ko'proq xabardor bo'ladilar. 1912-yili rus-tuzem maktabini a'lo baholarga bitirib oldi hamda Toshkent general-gubernatori Samsonovning kumush soati bilan taqdirlashiga sazovor bo'ladilar. Qodiriyning ijodlari ancha tez kamol topdi. 1914-16-yillarda o'zi „Baxtsiz kuyov”, „Juvonboz”, „Uloqda”, „Jinlar bazmi” kabi qator jiddiy, badiiy jihatdan pishiq, hattoki bu asarlar o'z qiymatini yo'qotmasdan sevib o'qiladigan asarlarni yaratdilar. Abdulla Qodiriy o'z bilimlarini arab, rus, fors va turk tillarini o'rganish hamda Sharq-G'arb davlatlar adabiyotini chuqur mutolaa etish bilan boyitadilar. Keyin esa bilimlarini yanada boyitish maqsadida 1916-17-yillarda Abulqosim madrasida tahsil oladi.

Abdulla Qodiriyning yana bir muhim ishlaridan biri bu „Mushtum” jurnaliga asos solganligidir. Ba'zi vaqtlarda uni „Mushtum” jurnalini yo'rgaklab beshigini tebratgan adiblardan deb bejizga aytishmaydi. Yaqin tarixga nazar tashlardigan bo'lsak „Mushtum” jurnalining birinchi soni 1923-yil 13-fevralidan boshlab chiqa

boshlaganini ko'rishimiz mumkin. Bilamizki "Mushtum" jurnali hajviy-satirik janrda yozilgan. U turli ijtimoiy, siyosiy va madaniy mavzularni hajviy yo'llar orqali tanqidiy yondashuv bilan yoritib bergan. Jurnal hazil, satira, felyeton, karikatura va pamflet kabi janrlardan foydalanib, jamiyatdagi dolzarb muammolarni yoritish va ularni kulgili uslubda tanqid qilishga yo'naltirilgan. 1924-yilda Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, Valeriy Bryusov nomidagi SSSR Davlat jurnalistika institutida tahsil oladilar. Bir yil o'tgach oilaviy sharoiti og'irligi sababli Toshkentga qaytib kelishga majbur bo'ladi va „Mushtum“ jurnalida shtatsiz muxbir ishlay boshlaydi.

Inson tug'ulibdiki, ma'naviyat bulog'idan suv ichmagan, uning ziyosi ostida ko'karmagan, aqliy jabhalarda teran fikrlab hayot yo'lini yorug'lik tezligi kabi yoritib nurafshon qilib bormagan, buning tub negizida ham asl ma'noda Abdulla Qodiriy kabi bir qancha buyuk siymolarimizning xizmati, ularning bizga qoldirgan ma'naviy boyliklari zulmatdan ziyo tarqatib bormoqda. Abdulla Qodiriyning bu ishlari tillardan-tillarga, dillardan-dillarga ko'chib, qalbimizda armug'on bo'lib kelmoqda. Teran ko'z bilan qaralganda ham, o'zbek romanchiligiga tamal toshini qo'ygan buyuk romannavis o'tkir qalam sohibidir. Tom ma'noda bir nazar solsak, Abdulla Qodiriyning adabiyotga, ma'naviy olamga juda katta tog' barpo etdi. Buning ifodasini esa uning romanlarni o'qigandan so'ng insonning terisi jumbushga keltiradigan, qalbini quyosh nuridek yoritib, isitib, uning hayotga bo'lgan qarashlarini o'tgan zamon adiblarimiz, xalqimizning kechmishlarini o'z asarlarida, shunday mohirona usulda yoritib beradiki, haqiqatdan ham bu olamni mo'jizalaridan biri desak aslo mubolag'a bolmas. Abdulla Qodiriy avvalda murakkab xayot kechirganlar, bu murakkabliklarni san'atkorona o'rganib, o'zlashtirganlar. Tabiiyki, bilim olish, bilim orttirish mutolaasiz bo'lmaydi. Abdulla Qodiriy birinchi galda Sharq adabiyotini mukammal o'rtangan adib. Shu bilan birga G'arb adabiyotini ham puxta egallagan edilar. Ana shu ikki buyuk maktabdan olgan chuqur bilimi va tajribalarini o'z ijodlarida moxirona qo'llay olganliklari u kishining asarlarining sevib o'qilishiga omil bo'lgan bo'lsa, ajab emas. Bu fikrlarni Qodiriy shunday tasdiqlaydilar: «Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangiliklarini ketidan ergashishimiz va shunga o'xshash dostonchilik, ro'movchilik va hikoyachiliklarda xam yangarishga xalqimizni shu zamonning «Tohir va Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod va Shirin» va «Bahromgo'r»lari bilan tanishtirishka o'zimizda majburiyat his etamiz».

Shu o'rinda biz Abdulla Qodiriyning „O'tgan kunlar“ hamda „Mehrobdan chayon“ romanlari yoniga kelganimizda bir soniya to'xtab o'tmasak bo'lmaydi. Chunki „O'tgan kunlar“ va „Mehrobdan chayon“ romanlari adabiyotimizda chuqur iz qoldirgan asarlar bo'lib, bugungi yoshlar uchun ma'naviy va ma'rifiy manba bo'lib xizmat qiladi. „O'tgan kunlar“ – o'zbek romanchiligining ilk namunasi bo'lib, unda muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik va ijtimoiy adolat mavzulari yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Asarda Otabek va Kumush obrazlari orqali insoniy fazilatlar,

sharqona an'ana va qadriyatlar aks ettiriladi. Yoshlar ushbu roman orqali ota-onaga hurmat, sevgi va fidoyilik kabi tuyg'ularni anglaydi. Shuningdek, roman o'z davrining ijtimoiy muammolarini – o'zaro nizolar, hasad va adolatsizlikni yorqin tasvirlaydi, bu esa bugungi yoshlarni jamiyatdagi salbiy hodisalar haqida o'ylashga undaydi. "Mehrobdan chayon" romanida esa qoloqlik, johillik va bid'atlarning jamiyatga yetkazgan zararli oqibatlari tasvirlanadi. Asardagi Anvar va Ra'no obrazlari orqali insoniy or-nomus, mehr-oqibat va oilaviy qadriyatlarning muhimligi ko'rsatiladi. Qodiriy bu roman orqali yoshlarni ilm-ma'rifatli bo'lishga, johillik va firibgarlikka qarshi kurashishga chorlaydi. Bugungi yoshlar ushbu asar orqali ma'naviy poklik, adolat va halollik kabi insoniy fazilatlarining qadriga yetadi. Ushbu asarlarni o'qish orqali yoshlarimiz nafaqat o'zbek adabiyotining durdonalari bilan tanishadi, balki o'zlarini insoniy jihatdan tarbiyalaydi. Shu bois ham bugungi yoshlar uchun Qodiriyning qoldirgan meroslari suv va havo kabi juda ham muhimdir.

Mamlakatimizning muhtaram birinchi Prezidenti I.A. Karimov buyuk adib haqida shunday fikrlarni ta'kidlab o'tganlar: «Yurtimizda Abdulla Qodiriy asarlari kirib bormagan birorta ham xonadon bo'lmasa kerak. U faqat o'zbeklarning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli adibi, ozodlik va istiqlol kuychisidir». Darhaqiqat, oradan sal kam bir asr o'tgan bo'lsa-da, bugun ham Abdulla Qodiriyning o'zbek adabiy til taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos xizmatlari yurak-yurakdan e'tirof etishga, adibning mahorati, go'zal yozg'ichi - qalamiga tahsin aytishga majburmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahodir Karimov "Jahon adabiyoti" jurnali, 2013 yil 3-soni
2. Qo'shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati. T.: Fan, 1966.
3. Bahodir Karimov "XX asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi" dissertatsiyasi, T., 2002
4. Habibullo Qodiriy . Otam haqida. Toshkent, 1983.
5. Normatov U. " Qodiriy bog'i." Toshkent, 1995.
6. Sherxon Qodiriy "Qodiriyning qumsab" 1994. Toshkent
7. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. Toshkent, 1994.
8. Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. Toshkent: Fan, 1977.